Bilim
Innovatsiya
Barqaror rivojlanish

Noyabr
№ 11, 2026

AGROBIZNES, FAN VA TEXNOLOGIYALAR

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON
JURNAL

Агробизнес, наука и технологии

Agribusiness, science and technology



№ 083688

ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform & workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR
Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.
Bosh muharrir o'rinbosarlari:
Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.
Farmonov To'lqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.
Muharrir:
Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.
Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:
Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)
Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)
Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)
Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))
Daiva Makutenene – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)
Xaitboyeva Nargiza Alikulovna - i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)
Tahrir hay'ati:
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:
Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;
Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;
Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;
Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;
Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;
Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;
Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;
Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;
Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;
Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);
Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;
Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;
Javliyev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:
Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);
Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);
Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);
Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);
Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;
Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Xudayqulov Jonibek Bozarovich – q.x.f.d. (DSc), professor;
Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;
Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;
Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;
Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);
Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;
Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);
Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;
Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS
Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR
Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.
Jurnalning telegram manzili:
t.me/agrobiznes_elektronjurnal
E-mail: licht-1989@mail.ru
Jurnalning rasmiy sayti:
https://www.agrobiznesjournal.uz
Tel: +(998) 93 439 30 00

JURNALNING ILMIYLIGI:

Ma'lumot uchun, OAK Rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 252-sahifa.
2026-yil, №11. noyabr.

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLAR

MUXITDINOV SHOHIJAHON HUDOYOR O‘G‘LI
Barqaror cho‘l turizmi klasterlarini rejalashtirish va boshqarishning ko‘p mezonli modeli.....15
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, OYYARIQOVA SABRINA ZOHID QIZI, RUSTAMOVA ZEBINISO BEHZOD QIZI
Tashqi iqtisodiy faoliyatni asosiy mazmuni.....24
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
Viza rejimini liberallashtirishning kiruvchi turizmga ta’sirini baholash: gravitatsiya modeli va mashinali o‘qitish uyg‘unligi.....33
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, YUSUPOV ALPOMISHBEK FAZLIDDIN O‘G‘LI, ZAFAROV OYBEK DILSHODOVICH
Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy elementlari.....39
JUMAYEV AKBAR MAHMUDOVICH
O‘zbekistonda kiruvchi turizmning makroiqtisodiy ta’siri va uni dinamik panel model asosida prognozlash.....48
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, AZAMAT ABDULLAYEV AKBAR O‘G‘LI, XASANOV BEHRUZ MA’MURJON O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyatga berilgan imtiyozlar.....54
DJURAYEVA IRODA BAHROM QIZI
Raqamli to‘lovlarning yashirin iqtisodiyotni qisqartirishdagi institutsional roli.....62
GAYBULLA KUCHKAROV
Qashqadaryo viloyatida moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini baholash va hududiy tafovutlarni qisqartirish yo‘llari.....71
SAYDIRASULOV LAZIZ ALIMOVICH
Soliq imtiyozlarining fiskal samaradorligini baholash va soliq xarajatlarini optimallashtirish yo‘nalishlari.....79
SAIDAXMEDOV NEMAT XAMIDOVICH
Raqamli transformatsiya sharoitida hududiy klasterlarning innovatsion rivojlanish mexanizmlarini takomillashtirish.....92
AZIMJON MUSAMUXAMEDOV
A composite charity index for assessing philanthropic organisations under partial disclosure: preliminary evidence from Uzbekistan.....97
IMINOV ZAFARBEK
Andijon viloyatida bandlik tuzilmasi, norasmiy bandlik va yashirin ishsizlikning statistik tahlili.....110
RAIMJANOV DEMIR RAIMJANXOJI O‘G‘LI
Hududiy sanoatning eksport salohiyati omillarini ekonometrik baholash va prognozlash (Andijon viloyati misolida).....124

SANGIROVA UMIDA RAVSHANOVNA
Suv tejovchi innovatsion texnologiyalarni joriy etishning xorijiy tajribasi va uni O‘zbekiston sharoitiga tadbiq etish yo‘nalishlari.....136
SHUKUROV SOBIR MAMASOLIEVICH
Household financial vulnerability in Uzbekistan: debt burden, regional disparities and a stress test.....143
TURSUNOVA DILNAVOZ DAVRON QIZI
Oziq-ovqat sanoati tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi samaradorligini integral indeks asosida baholash.....151
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, SHUKUROVA LOLA, O‘ROLOVA KAMOLA
Eksport-import operatsiyalari hisobi va auditini takomillashtirish bo‘yicha mamlakatimizda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar.....161
MUROD KHASANOVICH ABULKASIMOV
Economic security challenges in Central Asia: trade integration, water resource risks and interstate cooperation.....166
ODILOVA SITORA SAYFITDIN QIZI
Meva-sabzavot mahsulotlari eksportini rivojlantirishda raqamli marketing vositalaridan foydalanish.....175
MISIROV ASLIDDIN MAMASOBIROVICH, ABDUG‘ANIYEV ORIFJON, XO‘JANOV SHODMON ASROR O‘G‘LI
Tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi korxonalar maxsulotlarni inventarizatsiya jarayoni o‘tkazish tartibi.....182
SAFAROV BEXZOD ISMATOVIÇ
Tadqiqotçilarni motivatsiyalaşning nazariy yondaşuvlari va xorij tajribasi.....192
TURDIYEVA NIGORA AHMED QIZI
Yashil turizmni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning imkoniyatlari.....202
NUSRATILLOYEVA SHAHLO OLIM QIZI
Sun’iy intellekt sharoitida mehnat bozoridagi tarkibiy o‘zgarishlar: ijobiy va salbiy tendensiyalar tahlili.....210
DURUMOV TEMUR G‘OLIBOVICH
Sun’iy intellekt texnologiyalarini inson resurslarini boshqarish jarayonlariga joriy etish imkoniyatlari.....219
MAMADALIYEV ODILJON TOIROVICH
Hududlarni baholaş uçun yagona axborot bankini şakllantirişga doir yangiça yondaşuvlar.....227
UROQBOYEVA FARZUNA AXMADJONOVNA
Privatization of state assets through ipo: the uznif experience and its impact on Uzbekistan’s capital market.....237
ARZUOVA SHARGUL ANSATBAYEVNA, ABDIMURATOVA ALTINGUL KALBAEVNA
Raqamli iqtisodiyot sharoitida oliy ta’limda sun’iy intellektdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....245

YUSUPOV ZULUNJON ZIYOYDINOVICH
Asosiy vositalardan foydalanish hisobini takomillashtirishning metodologik va uslubiy yo‘nalishlari.....252

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

ASOSIY VOSITALARDAN FOYDALANISH HISOBINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODOLOGIK VA USLUBIY YO‘NALISHLARI

YUSUPOV ZULUNJON ZIYOYDINOVICH
Toshkent davlat agrar universiteti
Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit
kafedrasi dotsenti, i.f.f.d. (PhD)
E-mail: zulunjonyusupov@mail.com
ORCID: 0009-0001-0981-257X

Annotatsiya. Mazkur maqolada xo‘jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalardan foydalanish hisobini takomillashtirishning nazariy, metodologik va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Asosiy vositalarning iqtisodiy mazmuni, ularni tan olish, dastlabki va keyingi baholash, amortizatsiya hisoblash, texnik holatini nazorat qilish, modernizatsiya qilish hamda hisobdan chiqarish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan.
Kalit so‘zlar: asosiy vositalar, asosiy kapital, buxgalteriya hisobi, amortizatsiya, aktivlar samaradorligi, texnik holat, boshlang‘ich qiymat, qoldiq qiymat, qayta baholash, raqamli monitoring, iqtisodiy samaradorlik, aktivlarning hayotiy sikli.

Аннотация. В данной статье исследуются теоретические, методологические и практические аспекты совершенствования учета использования основных средств в хозяйствующих субъектах. На основе системного подхода анализируется взаимосвязь экономического содержания основных средств, их признания, первоначальной и последующей оценки, начисления амортизации, контроля технического состояния, модернизации, а также процессов их списания.
Ключевые слова: основные средства, основной капитал, бухгалтерский учет, амортизация, эффективность активов, техническое состояние, первоначальная стоимость, остаточная стоимость, переоценка, цифровой мониторинг, экономическая эффективность, жизненный цикл активов.

Abstract. This article examines the theoretical, methodological, and practical aspects of improving the accounting of property, plant and equipment utilization in business entities. Using a systematic approach, it analyzes the interrelationship between the economic substance of property, plant and equipment, their recognition, initial and subsequent measurement, depreciation, monitoring of technical condition, modernization, and disposal processes.
Keywords: property, plant and equipment, fixed capital, accounting, depreciation, asset efficiency, technical condition, initial cost, carrying amount, revaluation, digital monitoring, economic efficiency, asset life cycle.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida ishlab chiqarish jarayonlarining texnologik jihatdan yangilanishi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va korxonalar o‘rtasidagi raqobatning kuchayishi sharoitida asosiy vositalardan samarali foydalanish masalasi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barqaror rivojlanishini belgilovchi muhim omillardan biriga aylanmoqda. Korxonalarning ishlab chiqarish salohiyati, mahsulot tannarxi, mehnat unumdorligi, moliyaviy natijalari va investitsion jozibadorligi bevosita asosiy vositalarning tarkibi, texnik holati, foydalanish darajasi hamda ularni boshqarish sifatiga bog‘liq.

Asosiy vositalar korxonaning uzoq muddat davomida iqtisodiy naf keltirishga mo‘ljallangan moddiy aktivlari bo‘lib, ular ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonida muhim iqtisodiy resurs sifatida ishtirok etadi. Biroq asosiy vositalarning iqtisodiy ahamiyati faqat ularning balans qiymati yoki umumiy hajmi bilan belgilanmaydi. Ularning ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi, texnik eskirishi, bekor turish vaqti, ta’mirlash xarajatlari, energiya sarfi va mahsulot ishlab chiqarishdagi ishtiroki ham muhim ahamiyatga ega.

Amaldagi buxgalteriya hisobi amaliyotida asosiy vositalar harakatini hujjatlashtirish, inventarizatsiya qilish, amortizatsiya hisoblash va moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalariga katta e’tibor qaratiladi. Shu bilan birga, ularning real foydalanish samaradorligini aniqlash, texnik imkoniyatlari bilan iqtisodiy natijalarini o‘zaro bog‘lash, foydalanish jarayonidagi yo‘qotishlarni aniqlash va aktivlar bo‘yicha boshqaruv qarorlarini asoslash mexanizmlari yetarli darajada rivojlantirilmagan.

O‘zbekiston Respublikasida ham moliyaviy hisobot tizimini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, buxgalteriya hisobining normativ-metodologik asoslarini takomillashtirish va korxonalarda moliyaviy axborotlarning ishonchliligini oshirish bo‘yicha izchil islohotlar olib borilmoqda. Xususan, 2025-yil 15-sentabrdagi PQ–282-son qaror asosida milliy moliyaviy hisobot standartlarini xalqaro talablar asosida yangilash ishlari boshlangan. 2026-yil 27-oktabr holatiga ko‘ra, to‘qqizta yangi milliy moliyaviy hisobot standarti loyihasi jamoatchilik muhokamasiga taqdim etilgan va yangi standartlarni 2027-yildan boshlab bosqichma-bosqich joriy etish rejalashtirilgan. Mazkur jarayon asosiy vositalar hisobini takomillashtirishda ham xalqaro tajriba, milliy hisob amaliyoti va korxonalarning boshqaruv ehtiyojlarini uyg‘unlashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, asosiy vositalar hisobini takomillashtirish faqat hisob registrlarini yangilash yoki hujjat aylanishini elektronlashtirish bilan chegaralanmasligi lozim. Bu jarayon aktivlarning iqtisodiy resurs sifatidagi imkoniyatlarini aniqlash, ulardan foydalanish samaradorligini baholash, kelgusidagi ta’mirlash va modernizatsiya ehtiyojlarini prognoz qilish hamda investitsion qarorlarni asoslash imkonini beradigan yaxlit axborot tizimini shakllantirishni talab etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Asosiy vositalar hisobining nazariy asoslarini rivojlantirishda P.Atrill va E.McLaney tomonidan ishlab chiqilgan moliyaviy hisob va hisobotga oid ilmiy qarashlar ham muhim ahamiyatga ega. Mualliflar aktivlarni baholash, amortizatsiya ajratmalari va moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlarining o‘zaro bog‘liqligini yoritib, buxgalteriya axborotlarining boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi roliga e’tibor qaratganlar.

Shuningdek, C. Nobes va R. Parkerning xalqaro buxgalteriya hisobi bo‘yicha tadqiqotlarida turli mamlakatlarda asosiy vositalarni baholash va hisobga olish amaliyotining o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan. Ushbu ilmiy yondashuvlar

milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish, hisob siyosatini uyg‘unlashtirish va moliyaviy axborotlarning taqqoslanuvchanligini oshirish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir.

Mahalliy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham asosiy vositalar hisobini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, I.N.Ismanovning uzoq muddatli aktivlar buxgalteriya hisobining metodologik asoslariga bag‘ishlangan ilmiy ishlari asosiy vositalarni hisobga olishning nazariy va uslubiy jihatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega. Muallifning ilmiy yondashuvlari uzoq muddatli aktivlarning iqtisodiy mohiyatini ochib berish, ularni baholash va buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalarini tadqiq etishga qaratilgan.

Sh.T.Ergashevaning “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” nomli darsligida xalqaro standartlar asosida moliyaviy hisobotni shakllantirish, aktivlarni tan olish va baholash, moliyaviy axborotlarning ishonchliligi hamda taqqoslanuvchanligini ta’minlash masalalari yoritilgan. Ushbu ilmiy-uslubiy qarashlar asosiy vositalar hisobini milliy amaliyotdan xalqaro moliyaviy hisobot standartlari talablariga muvofiqlashtirishda nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

N. Sanokulovaning “Asosiy vositalar buxgalteriya hisobini takomillashtirish” nomli ilmiy maqolasida asosiy vositalarni BHMS va MHXS talablari asosida tan olish, turkumlash, kirim qilish, chiqib ketishini hisobga olish hamda moliyaviy hisobotlarda ular to‘g‘risidagi axborotlarni to‘g‘ri aks ettirish masalalari tadqiq etilgan. Muallif asosiy vositalar hisobini uslubiy va tashkiliy jihatdan takomillashtirish zarurligini asoslab bergan. Mazkur tadqiqotning ahamiyatli jihati shundaki, unda milliy hisob amaliyoti bilan xalqaro standartlar talablari o‘rtasidagi bog‘liqlik yoritilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 5-sonli BHMS “Asosiy vositalar” standartida amortizatsiyani hisoblashning to‘g‘ri chiziqli, ishlab chiqarish, ikki baravar kamayib boruvchi qoldiq va kumulyativ usullari nazarda tutilgan. Shuningdek, asosiy vositalarning foydali xizmat muddatini qayta ko‘rib chiqish, amortizatsiya usulini o‘zgartirish va bunday o‘zgarishlarni hisob siyosatida aks ettirish talablari belgilangan. Bu normalar asosiy vositalardan foydalanish intensivligi va iqtisodiy naf olish xususiyatlarini hisobga olgan holda amortizatsiya hisobini tashkil etish uchun metodologik asos yaratadi.

Tadqiqotning maqsadi xo‘jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalardan foydalanish hisobining nazariy-metodologik asoslarini rivojlantirish, mavjud tashkiliy-uslubiy muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan integratsiyalashgan hisob hamda tahlil modelini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- asosiy vositalar hisobining iqtisodiy mazmuni va metodologik asoslarini tizimli o‘rganish;
- asosiy vositalarni tan olish, baholash va amortizatsiya hisoblash usullarining samaradorligini tahlil qilish;
- asosiy vositalardan foydalanish hisobidagi axborot va metodologik muammolarni aniqlash;

- aktivlarning texnik holati va iqtisodiy samaradorligini o‘zaro bog‘lovchi ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish;
- asosiy vositalarning hayotiy sikli bo‘yicha integratsiyalashgan analitik hisob modelini taklif etish;
- raqamli texnologiyalar asosida asosiy vositalar hisobini tashkil etishning ustuvor yo‘nalishlarini asoslash.

Tadqiqot obyekti xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalaridan foydalanish, ularning harakati va iqtisodiy samaradorligini hisobga olish jarayonlaridir.

Tadqiqot predmeti asosiy vositalar hisobini tashkil etish, baholash, amortizatsiya, texnik holatni nazorat qilish, foydalanish samaradorligini aniqlash va boshqaruv axborotlarini shakllantirish bilan bog‘liq iqtisodiy munosabatlar hamda metodologik yondashuvlardan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Asosiy vositalar hisobini takomillashtirishda milliy me’yoriy hujjatlar bilan xalqaro standartlar talablarini o‘zaro uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarining IAS 16 – “Property, Plant and Equipment” standarti asosiy vositalarni tan olish, ularning balans qiymatini aniqlash, amortizatsiya va qadrsizlanish zararlarini hisobga olish tartibini belgilaydi. Standartga muvofiq, aktivdan kelgusida iqtisodiy naf olinishi ehtimoli mavjud bo‘lsa va uning qiymati ishonchli baholansa, u asosiy vosita sifatida tan olinadi.

Asosiy vositalarning dastlabki qiymati ularni sotib olish, foydalanishga tayyor holatga keltirish bilan bevosita bog‘liq xarajatlar hamda tegishli shartlarda demontaj va joyni tiklash xarajatlarini qamrab oladi.

IAS 16 talablarida asosiy vositalarning foydali xizmat muddati va tugatish qiymatini har bir moliyaviy yil yakunida qayta ko‘rib chiqish, amortizatsiya usulini aktivdan iqtisodiy naf olish xususiyatiga muvofiq belgilash nazarda tutilgan.

IAS 36 – “Impairment of Assets” standarti aktivlarning balans qiymati ularning qoplanadigan qiymatidan yuqori bo‘lib qolmasligini ta’minlashga qaratilgan. IFRS 13 esa haqqoniy qiymatni aniqlashning yagona metodologik asoslarini belgilaydi.

O‘zbekistonda milliy standartlarni xalqaro talablar asosida rivojlantirish jarayoni mazkur metodologik yondashuvlarni milliy hisob amaliyotiga tatbiq etish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

Tadqiqotda asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini faqat fond qaytimi bilan baholash yetarli emasligi asoslandi. Shu sababli ishlab chiqarish natijalari, aktivlarning texnik holati, vaqt bo‘yicha foydalanish darajasi va iqtisodiy xarajatlarni qamrab oluvchi ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish taklif etiladi.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

1. Fond qaytimi koeffitsiyenti:

$$F_q = \frac{M}{AV_{o'rt}}$$

F_q – fond qaytimi koeffitsiyenti;
M – ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati yoki mahsulot sotishdan tushum;
$AV_{o'rt}$ – asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati.

2. Fond sig‘imi koeffitsiyenti:

$$F_s = \frac{A_{o'rt}}{M}$$

F_s — fond sig‘imi koeffitsiyenti;
$A_{o'rt}$ — asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati;
M — ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati yoki sotishdan tushum.

Ushbu ko‘rsatkich mahsulotning bir so‘mlik tushumiga qancha asosiy vosita qiymati to‘g‘ri kelishini ifodalaydi.

3. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti:

$$K_e = \frac{E}{B_q} \times 100\%$$

Bu yerda:
K_e— asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti;
E— asosiy vositalar bo‘yicha jamg‘arilgan amortizatsiya (eskirish) summasi;
B_q— asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati.

4. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti:

$$K_y = \frac{Q_q}{B_q} \times 100\%$$

Bu yerda:
K_y— asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti;
Q_q— asosiy vositalarning qoldiq qiymati;
B_q— asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati.

5. Uskunalardan vaqt bo‘yicha foydalanish koeffitsiyenti:

$$K_v = \frac{T_f}{T_r} \times 100\%$$

Bu yerda:

K_v— uskunalardan vaqt bo‘yicha foydalanish koeffitsiyenti;
T_f — uskunaning amalda ishlagan vaqti;
T_r— uskunaning reja bo‘yicha ishlashi lozim bo‘lgan vaqt

Asosiy vositalar hisobini takomillashtirishning integratsiyalashgan modeli.

Tadqiqotda asosiy vositalar hisobini aktivlarning butun hayotiy sikli bo‘yicha tashkil etish taklif qilinadi. Ushbu yondashuv aktivni sotib olish yoki qurishdan boshlab, foydalanish, ta’mirlash, modernizatsiya qilish va hisobdan chiqarishgacha bo‘lgan jarayonlarni yagona axborot tizimiga birlashtiradi.

Taklif etilayotgan model quyidagi funksional bosqichlarni qamrab oladi:

1. Asosiy vositalarni xarid qilish va dastlabki qiymatini shakllantirish.
2. Inventar raqami va raqamli identifikatsiya kodini berish.
3. Foydalanishga topshirish va mas’ul shaxslarni belgilash.
4. Amortizatsiya va texnik eskirishni alohida hisobga olish.
5. Ish vaqti, ishlab chiqarish quvvati va bekor turish holatlarini monitoring qilish.
6. Ta’mirlash, modernizatsiya va rekonstruksiya xarajatlarini hisobga olish.
7. Aktivlarning qadrsizlanishi va qayta baholanishini nazorat qilish.
8. Hisobdan chiqarish va iqtisodiy natijani aniqlash.

Mazkur modelda har bir aktiv bo‘yicha buxgalteriya, texnik va iqtisodiy axborotlar yagona analitik kartochkada shakllantiriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Asosiy vositalardan foydalanish hisobini takomillashtirish uchun, avvalo, hisob tizimining mavjud imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash zarur. Amaliyotda asosiy vositalar bo‘yicha hisob axborotlari ko‘pincha buxgalteriya, texnik xizmat ko‘rsatish, ishlab chiqarish va moddiy javobgar shaxslar faoliyati doirasida alohida shakllanadi. Natijada bitta aktiv bo‘yicha uning balans qiymati, texnik holati, ta’mirlash tarixi va ishlab chiqarishdagi real samarasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar yagona axborot maydonida jamlanmasligi mumkin.

1-jadval

Asosiy vositalar hisobini tashkil etishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘nalishlari

Mavjud muammo	Iqtisodiy oqibat	Taklif etilayotgan yechim
Analitik hisobning yetarlicha chuqurlashtirilmaganligi	Aktivlar samaradorligini aniqlash qiyinlashadi	Har bir aktiv bo‘yicha kengaytirilgan analitik hisob
Texnik va buxgalteriya ma’lumotlarining uzviy bog‘lanmaganligi	Real holat va balans qiymati o‘rtasida axborot tafovuti yuzaga keladi	Yagona raqamli aktivlar reyestri
Amortizatsiya hisobining foydalanish intensivligi bilan bog‘lanmaganligi	Xarajatlar taqsimotida iqtisodiy nomuvofiqlik yuzaga kelishi mumkin	Foydalanish xususiyatiga mos amortizatsiya usuli
Ta’mirlash xarajatlarining yetarlicha tahlil qilinmasligi	Asossiz xarajatlar va takroriy ta’mirlash xavfi	Ta’mirlash xarajatlari bo‘yicha analitik monitoring
Bekor turish vaqtining hisobga olinmasligi	Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish samarasi pasayadi	Ish vaqti va bekor turish monitoringi
Qadrsizlanish belgilarining o‘z vaqtida aniqlanmasligi	Aktivlarning balans qiymati iqtisodiy imkoniyatlardan yuqori aks etishi mumkin	Qadrsizlanish indikatorlari tizimi

Manba: muallif tomonidan tadqiqotning metodologik umumlashtirishlari asosida ishlab chiqilgan.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, asosiy vositalar hisobini takomillashtirishda eng muhim masala hisob axborotlarining o'zaro integratsiyasini ta'minlashdan iborat. Buxgalteriya hisobi aktivning puldagi qiymatini aks ettirishi bilan bir qatorda, uning ishlab chiqarishdagi ishtiroki va iqtisodiy natijalarini ham baholashga xizmat qilishi lozim.

Shu nuqtayi nazardan, asosiy vositalar hisobini faqat inventar obyektlari bo'yicha tashkil etishdan ularning foydalanish funksiyasi, texnik imkoniyatlari va iqtisodiy samaradorligini qamrab oluvchi ko'p mezonli hisob tizimiga o'tish maqsadga muvofiq.

Asosiy vositalarning qiymatini to'g'ri aniqlash va amortizatsiya xarajatlarini asosli taqsimlash moliyaviy natijalarni ishonchli shakllantirishning muhim shartidir. Amortizatsiya asosiy vositalarning amortizatsiyalanadigan qiymatini foydali xizmat muddati davomida tizimli taqsimlash jarayoni hisoblanadi.

Amortizatsiyalanadigan qiymat quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$A_q = B_q - T_q$$

Bu yerda:

- **A_q** – amortizatsiyalanadigan qiymat;
- **B_q** – boshlang'ich qiymat;
- **T_q** – tugatish qiymati.

To'g'ri chiziqli usulda yillik amortizatsiya summasi:

$$A_y = \frac{A_q}{F}$$

Bu yerda:

A_q– amortizatsiyalanadigan qiymat;

F– foydali xizmat muddati.

Biroq barcha asosiy vositalar uchun bir xil amortizatsiya yondashuvini qo'llash har doim ham iqtisodiy jihatdan asosli bo'lmaydi. Masalan, ishlab chiqarish uskunalarining eskirishi ularning ishlagan soatlari yoki ishlab chiqargan mahsulot hajmiga bevosita bog'liq bo'lishi mumkin.

Shu sababli quyidagi yondashuvlarni farqlash maqsadga muvofiq:

- to'g'ri chiziqli usul – iqtisodiy naf nisbatan bir tekis iste'mol qilinadigan aktivlar uchun;
- kamayib boruvchi qoldiq usuli – iqtisodiy nafning dastlabki yillarda ko'proq iste'mol qilinishi kuzatiladigan aktivlar uchun;
- ishlab chiqarish usuli – aktivning foydali xizmatini ishlab chiqarish hajmi yoki ishlagan soatlari bilan ishonchli o'lchash mumkin bo'lgan holatlar uchun.

Bunda amortizatsiya usulini tanlash korxonaning hisob siyosati, qo'llaniladigan moliyaviy hisobot standarti va soliq hisobi talablariga muvofiq amalga oshirilishi lozim.

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

Asosiy vositalar hisobini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri ularning iqtisodiy samaradorligini muntazam tahlil qilish hisoblanadi.

Quyida hisob-kitob metodikasini namoyish etish maqsadida shartli korxona ma’lumotlari asosida tahlil amalga oshiriladi.

2-jadval

Korxonada asosiy vositalardan foydalanishning shartli iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	Bazis davri	Joriy davr
Mahsulot sotishdan tushum, mln so‘m	12 000	15 000
Asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati, mln so‘m	8 000	9 000
Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati, mln so‘m	10 000	12 000
Jamg‘arilgan amortizatsiya, mln so‘m	3 000	3 600
Asosiy faoliyat foydasi, mln so‘m	1 200	1 800
Uskunalarning rejalashtirilgan ish vaqti, soat	2 400	2 400
Uskunalarning amaldagi ish vaqti, soat	1 800	2 040

Jadvaldagi ko‘rsatkichlar asosida asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholaymiz.

1. Fond qaytimi:

Bazis davrida: 1,50

Joriy davrda: 1,67

O‘zgarish: Fq=1,67-1,50=0,17

Demak, asosiy vositalarning har bir so‘miga to‘g‘ri keladigan sotish tushumi 0,17 so‘mga oshgan.

2. Fond sig‘imi:

Bazis davrida: 0,667

Joriy davrda: 0,600

Demak, mahsulot sotishdan tushumning bir so‘miga to‘g‘ri keladigan asosiy vositalar qiymati 0,067 so‘mga kamaygan. Bu aktivlardan foydalanish samaradorligi yaxshilanganini ko‘rsatadi.

3. Asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti:

Bazis davrida: 30%

Joriy davrda: 30%

Natijalar asosiy vositalarning hisobdagi eskirish darajasi o‘zgarmaganligini ko‘rsatadi. Biroq bu holat ularning real texnik holati ham o‘zgarmaganligini anglatmaydi. Chunki buxgalteriya amortizatsiyasi bilan texnik eskirish bir xil iqtisodiy tushunchalar emas.

4. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti:

Bazis davrida: 70%,

Joriy davrda: 70%.

5. Uskunalardan vaqt bo‘yicha foydalanish koeffitsiyenti:

Bazis davrida: 0,75

Joriy davrda: 0,85

2026-yil, noyabr.
№11-son.
ISSN: 3060-5245

Uskunalardan foydalanish darajasi 10 foiz punktga oshgan.

3-jadval

Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichlarining qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkich	Bazis davri	Joriy davr	O‘zgarish
Fond qaytimi	1,50	1,67	+0,17
Fond sig‘imi	0,667	0,600	−0,067
Eskirish koeffitsiyenti, %	30	30	0
Yaroqlilik koeffitsiyenti, %	70	70	0
Vaqt bo‘yicha foydalanish koeffitsiyenti	0,75	0,85	+0,10

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Tahlil natijalari asosiy vositalarning o‘rtacha yillik qiymati 12,5 foizga oshgan sharoitda mahsulot sotishdan tushum 25 foizga, asosiy faoliyat foydasi esa 50 foizga o‘sganligini ko‘rsatadi.

Bu holat asosiy vositalar qiymatining o‘sishiga nisbatan ulardan olinayotgan iqtisodiy natija tezroq oshganligini anglatadi. Shu bilan birga, uskunalarning amalda ishlagan vaqti 13,3 foizga ko‘paygan.

Mazkur natijalar asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholashda faqat balans qiymati va amortizatsiya summasiga tayanish yetarli emasligini tasdiqlaydi. Uskunalarning real ish vaqti, ishlab chiqarish hajmi va moliyaviy natijalarini birgalikda tahlil qilish zarur.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida asosiy vositalar hisobini takomillashtirishning muhim yo‘nalishlaridan biri zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishdir.

Jumladan:

QR-kod va RFID texnologiyalari yordamida aktivlarni identifikatsiyalash;

elektron inventarizatsiya tizimini joriy etish;

ERP tizimlari orqali buxgalteriya va ishlab chiqarish axborotlarini integratsiyalash;

IoT qurilmalari yordamida uskunalarning ish vaqti va texnik holatini monitoring qilish;

sun’iy intellekt asosida ta’mirlash ehtiyojlarini prognozlash;

boshqaruv hisobotlarida interaktiv tahliliy panellardan foydalanish.

Mazkur texnologiyalarni joriy etish asosiy vositalar bo‘yicha ma’lumotlarning aniqligi, tezkorligi va nazorat darajasini oshirishi mumkin. Bunda raqamlashtirishning iqtisodiy samarasi faqat dasturiy mahsulot sotib olish bilan emas, balki ma’lumotlarning o‘zaro mosligi, xodimlarning malakasi, ichki nazorat va axborot xavfsizligi bilan ham belgilanadi.

Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida quyidagi ilmiy-uslubiy takliflar ishlab chiqildi.

-Asosiy vositalar hisobini ularning hayotiy sikli asosida tashkil etish. Bunda aktivning sotib olinishi, foydalanishga topshirilishi, ekspluatatsiyasi,

ta’mirlanishi, modernizatsiyasi va hisobdan chiqarilishi yagona analitik axborot tizimida aks ettiriladi.

- Asosiy vositalar bo‘yicha kengaytirilgan analitik hisob tizimini joriy etish. Bunda har bir inventar obyektining buxgalteriya qiymati bilan birga texnik holati, ishlab chiqarish quvvati, amaldagi ish vaqti, bekor turish va ta’mirlash xarajatlari to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham jamlanadi.

- Amortizatsiya siyosatini asosiy vositalardan iqtisodiy naf olish xususiyatlariga muvofiq shakllantirish. Ishlab chiqarish hajmi yoki ishlash soatlari bilan bevosita bog‘liq aktivlarda tegishli shartlar mavjud bo‘lsa, ishlab chiqarish usulidan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish taklif etiladi.

- Asosiy vositalarning qadrsizlanishini aniqlash bo‘yicha ichki monitoring indikatorlarini joriy etish. Bunda texnik eskirish, ishlab chiqarish hajmining pasayishi, uskunalarning uzoq muddat ishlatilmasligi va kutilayotgan pul oqimlarining kamayishi kabi belgilar hisobga olinadi.

- Asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini baholash uchun kompleks ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish. Mazkur tizim fond qaytimi, fond sig‘imi, rentabellik, eskirish, yaroqlilik, vaqt bo‘yicha foydalanish va bekor turish ko‘rsatkichlarini o‘zaro bog‘liq holda qamrab oladi.

-Asosiy vositalar hisobida raqamli identifikatsiya va avtomatlashtirilgan nazorat mexanizmlarini rivojlantirish. Har bir aktivga QR-kod yoki boshqa identifikatsiya vositasi biriktirilib, uning hisob va texnik ma’lumotlari yagona elektron reyestrda shakllantiriladi.

Mazkur takliflar asosiy vositalar hisobini moliyaviy hisobotga axborot yetkazib beruvchi oddiy hisob tizimidan ishlab chiqarish resurslarini samarali boshqarishga xizmat qiluvchi strategik axborot tizimiga aylantirishga qaratilgan.

XULOSA

O‘tkazilgan nazariy-metodologik tadqiqotlar va shartli iqtisodiy hisob-kitoblar asosida asosiy vositalardan foydalanish hisobini takomillashtirish korxonalarning ishlab chiqarish salohiyati, moliyaviy barqarorligi va investitsion samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslandi. Tadqiqot natijasida quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Asosiy vositalar hisobini faqat ularning boshlang‘ich va qoldiq qiymati, amortizatsiyasi hamda harakatini aks ettirish bilan cheklash yetarli emas. Hisob tizimi aktivlarning texnik holati, foydalanish intensivligi va iqtisodiy samaradorligini ham qamrab olishi zarur.

2. Asosiy vositalarning buxgalteriya hisobi va texnik monitoringini integratsiyalash aktivlar to‘g‘risidagi axborotlarning ishonchliligini oshirish, ularning real holatini baholash va boshqaruv qarorlarini asoslash imkonini beradi.

3. Amortizatsiya hisoblash usullarini tanlashda asosiy vositalardan iqtisodiy naf olish xususiyatlarini inobatga olish lozim. Bunda aktivning foydali xizmat muddati, tugatish qiymati va foydalanish intensivligini muntazam qayta ko‘rib chiqish muhim hisoblanadi.

4. Raqamli identifikatsiya, elektron inventarizatsiya, ERP va IoT texnologiyalaridan foydalanish asosiy vositalar hisobining tezkorligi va nazorat imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq bunday texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi ularni korxonaning mavjud boshqaruv va ichki nazorat tizimiga to‘g‘ri integratsiyalashga bog‘liq.

Umuman olganda, asosiy vositalardan foydalanish hisobini takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishi moliyaviy hisob, texnik nazorat va iqtisodiy tahlilni o‘zaro uyg‘unlashtirishdan iborat. Bu esa korxonalarda aktivlardan foydalanish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish, investitsion qarorlarning asoslanganligini kuchaytirish va moliyaviy hisobotlarning sifatini yaxshilash uchun metodologik asos yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Sh.T. Ergasheva “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” darslik - Toshkent Sharq 2017. -231b.

2. U.I.Inoyatov, S.D.Yusupova “Buxgalteriya hisobi” o‘quv qo‘llanma. - Toshkent. Sharq 2011. -286

3. O‘zbekiston Respublikasining “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni. 2016-yil 13-aprel, O‘RQ–404-son.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi PQ–282-son “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talablar va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

5. IAS 16 – Property, Plant and Equipment. IFRS Foundation.

6. IAS 36 – Impairment of Assets. IFRS Foundation.

2026-yil, noyabr. №11-son.

Mas’ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko‘chirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko‘chasi, 2-uy